

О‘zbekistonda amalga oshirilayotgan aholining ijtimoiy himoya siyosati

Mirzaliyev Ulug‘bek

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori dotsent

Bobojonov Salohiddin

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy himoya siyosati haqida umumiy ma‘lumot, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan aholining ijtimoiy himoya siyosati haqida ma‘lumotlar berilgan.

Tayanch iboralar. *Ijtimoiy himoya, O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi, aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy sug‘urta.*

Ijtimoiy himoya - keng ma‘noda — mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta‘minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora tadbirlar majmui; tor ma‘noda — davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta‘minlanmagani tufayli yordamga, ko‘makka muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rliqi. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to‘xtovsiz yaxshilanishini ta‘minlash, aholi qatlamlarining ta‘lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta‘minlashga yordam berishdan iborat. Ijtimoiy himoyaning asosiy yo‘nalishlari: erkin ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishni ta‘minlash; ish bilan bandlik, kasb tanlash, o‘qish va bilim olish; daromadlarning kafolatlanishi; har bir fuqaroning o‘z iqtisodiy faoliyatida daromadga ega bo‘lishi; iste‘molchilar himoyasi, iste‘molchilar jamiyatlari; tovarlar va xizmatlar sifati, iste‘mol kafolatini ta‘minlash;

aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish; ijtimoiy ta'minot tizimi va aholining muhtoj, kam ta'minlangan qismlariga pensiyalar, nafaqalar, turli xil imtiyozlar berish.

Rivojlangan demokratik jamiyatda Ijtimoiy himoya vazifalarini bajarishni davlat o'z zimmasiga oladi. „Ijtimoiy himoya“ tushunchasi birinchi marta 1935-yilda AQShning „Ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha qonun“ida qo'llanilgan, keyinchalik Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalarida bu tushuncha mazmuni mukammallashtirilgan. AQSH, Kanada, Shveysariya kabi mamlakatlarda Ijtimoiy himoyaning ko'pgina muammolari hal etilgan, lekin yechimini topmagan muammolari ham juda ko'p. Shunga qaramay, bu mamlakatlar tajribalaridan foydalanish ahamiyatlidir. Turli mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya tizimi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasi, demokratik taraqqiyot va uning aholi manfaatiga muvofikligi, ijtimoiy siyosat darajasi, ijtimoiy ta'minot tizimi kabi omillarga bog'liq holda amal qiladi. O'zbekistonda Id. tizimi 20-asrning 20-y.laridan boshlab shakllana boshladi. 90-yillarga kelib, bozor iqtisodiyotiga o'tish asosida amaldagi islohotlarga mos ravishda yangidan shakllandi. Ayniqsa, milliylik, o'zlikni anglash, e'tiqod va an'analarning tiklanishi ijtimoiy himoya tizimiga muhim yangilik bo'lib qo'shildi. O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish iqtisodiy islohotlar dasturidagi uz-luksiz ustuvor yo'nalishlardan biriga, ya'ni islohotlarning hamma bosqichlarida ustuvor hisoblanadigan vazifalar qatoriga kiradi. Mamlakatda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti barpo qilishda davlat tomonidan kuchli Ijtimoiy himoya siyosati olib borilmoqda. Kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'lining yetakchi tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Respublikada Ijtimoiy himoyaning huquqiy muhiti yaratildi, unga qonuniy asos solindi. Ijtimoiy himoya tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanib, qabul qilingan qonunlarda o'z aksini topdi. Mamlakatda daromad olishning kafolatlanishi amalga oshirildi. Keng miqyosda yangi ish joylari yaratilishi aholini ish bilan ta'minlash ishsizlik muammosini hal qilmoqda (mamlakatda

ishsizlikning statistik ko'rsatkichi — 0,5—0,6%). Bunda, ayniqsa, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, kasanachilik qo'l kelmoqda. Tovarlar sifati, aholiga xizmat ko'rsatish sohalarida amalga oshirilayotgan tadbir-choralar iste'molchilar himoyasini shakllantirib, aholi manfaatlarini ta'minlamoqda. Inflyasiyaning oldini olish, so'mning xarid kuchini saqlash, biznes-tijorat ustidan davlatning maromiy nazoratini o'rnatish, marketing, savdo, reklama kabilarni tartiblashtirish Ijtimoiy himoyani rivojlantirmoqda. Ekologiya bilan bog'liq bir qancha katta himoyalash ishlari amalga oshirilib, suv, havo, yer va mahsulot tozaligiga erishilmoqda. O'qish, bilim olish, kasb tanlash O'zbekistonda amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlashning milliy dasturi asosida tubdan yangilanmoqda. Ta'limga ajratilgan mablag'lar keyingi 7 yil (1995—2002-yillar) ichida yiliga yalpi ichki mahsulotning 7,1—7,76% ini, ajratilgan mablag' byudjet harajatlarning 21,77—24,12% ini tashkil etdi. Bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Tibbiyotda o'tkazilayotgan islohotlar natijasida aholiga sog'liqni sakdash sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligini ko'tarish choralari amalga oshirildi. Inflyasiyaga qarshi choralari ham Ijtimoiy himoyada muhim ahamiyatga ega. Keyingi yillarda uning o'rnini to'la qoplash mumkin bo'lmasa ham zarar kuchini pasaytirish maqsadida ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdori oshirilmoqda (1998-yilda - 50%, 2000-yilda - 60% va 2002-yilda - 30%). Bozor munosabatlariga o'tish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholini yalpi Ijtimoiy himoya qilish tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini, ayniqsa, uning nochor guruxlarini aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi barpo etildi. Bu tizimda mahalla markaziy o'rinda turadi. 1999-yilda ushbu tizim orqali kam ta'minlangan oilalar — jami 3 mln. kishi (mamlakat aholisining 12,2%) va bolali oilalar — 6,5 mln. dan optik, kishi (27%) moddiy yordam oldi. Bir oila uchun yordam puli bolalar nafaqasi bilan birga oyiga 3,4 eng kam ish haqini tashil qiladi. Bu sohada Ijtimoiy himoya, asosan, kam ta'minlangan oilalar uchun turli nafaqalar berish, aholining ba'zi

guruhlari uchun imtiyozlar yaratish, yolg'iz qariya va nogironlarni davlat hisobidan boqish va boshqa asosida amalga oshiriladi.

Respublika Prezidentining „Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida“gi farmoniga (1994-yil 23-avgust) ko'ra, voyaga yetmagan farzandlari bo'lgan ko'p bolali oilalar, kam pensiya olayotganlarning oilalari, nogironlarning oilalari, ishsizlar va boquvchisini yo'qotganlarning oilalari, yolg'iz pensionerlar va kam daromad olayotgan muhtoj oilalarga moddiy yordam berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 10 dekabrda farmoni bilan 16 yoshgacha farzandi bo'lgan kam ta'minlangan oilalar davlatning alohida otalig'iga olindi, 2002-yil 25-yanvardagi farmonga binoan ijtimoiy yordam ko'rsatiladigan farzandli oilalar do-irasi umumta'lim maktablarida, akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarida o'qiyotgan 18 yoshgacha farzandi bo'lgan oilalar hisobiga kengaytirildi. Bulardan tashqari O'zbekistonda norasimiy ijtimoiy yordam turlari ham mavjud; ularga qarindoshlarning o'zaro yordami, milliy va diniy urf-odatlar asosida qilinadigan yordam, korxonalar va tashkilotlarning pensionerlarga, kam ta'minlangan ko'p bolali oilalarga, beva-bechoralarga yordam puli berishi kiradi. Respublikada ayollar, bolalar, keksalarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatiladi. Ijtimoiy himoya doirasida 1998-yil „Oila yili“, 1999-yil „Ayollar yili“, 2000-yil „Sog'lom avlod yili“, 2001-yil „Bolalar yili“, 2002-yil „Qariyalarni qadrlash yili“ deb e'lon qilingani va ularga taalluqli maxsus dasturlarni amalga oshirish mavjud Ijtimoiy himoya muammolarini hal qilish va bunga jamoatchilikni jalb etishda yaxshi samaralar berdi. 1995-yilda byudjet harajatlarining 21,8%, 2000-yilda 29,6% ijtimoiy sohaga ajratildi. 1999-yildan boshlab YAIM o'sishi aholi o'sishi sur'atidan ustun bo'lishiga erishildi. Bu turmush darajasi o'sishining va Ijtimoiy himoya rivojining zaminidir. Umr uzunligi 70,3 yoshni (1999-yil) tashkil etdi.

„O'zbekiston Respublikasi aholisini 2010-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan ijtimoiy himoya tizimining yagona konsepsiyasi“ ishlab chiqilgan.

Unda Respublikada mavjud bo‘lgan Ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam, pensiya ta’mino-ti, bolalarga nafaqa to‘lash, yolg‘iz kek-salarga xizmat ko‘rsatish, nogironlarni protez-ortopediya buyumlari, harakatlanish vositalari bilan ta’minlash, shuningdek, tibbiy, mehnat va ijtimoiy jihatdan tiklash, tibbiy xizmat, ishsizlarni ishga joylashtirish va moddiy yordam berish, bir yo‘la (nomuntazam) yordam tizimlari asoslarida amalga oshirilishi belgilangan. O‘zbekistonda 2000-yilda Respublika davlat byudjetidan 72,4 mlrd, so‘m (YAIMning 2,3%) Ijtimoiy ta’minotga ajratildi (yana q. Ijtimoiy ta’minot).

Aholini ijtimoiy himoya qilish borasida yangicha tizim yaratiladi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamkorligida “O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va adolatli ijtimoiy siyosat yuritish borasidagi islohotlar” mavzusida seminar o‘tkazildi. Unda Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi, O‘zbekiston Nogironlar jamiyati, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi mas’ul xodimlari hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari Akmal Saidov yig‘ilishni ochar ekan, so‘nggi yillarda mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami va turlarini kengaytirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilayotgani, ushbu masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini alohida qayd etib o‘tdi. Ta’kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali aholining ko‘makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta’minlash, ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etish, og‘ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy

xizmat va yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ijtimoiy muammolarni adolatli hal etishning mutlaqo yangi va o'ziga xos tizimi yaratilib, "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari", "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash usullari joriy etilgani bugun ijtimoiy masalalarni samarali hal etishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilab qo'yildi. Bosh qomusimizda ijtimoiy majburiyatlarga doir normalar 3 barobarga oshganligi, mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishi belgilandi.

Prezidentimizning 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizda nafaqa oluvchilar soni 2016 yilda 466 ming nafarni tashkil etgan bo'lsa, bugunga kelib 2 milliondan oshdi. Seminarda Prezidentimiz raisligida ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilab berilgan ustuvor vazifalar, ularni ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Tadbir ishtirokchilari tomonidan aytib o'tilganidek, so'nggi oylarda kam ta'minlangan oilalar manzilli o'rganilib, tizim shaffof qilingani natijasida doimiy daromadga ega oilalar bunday toifadan chiqarilgan. O'zgalar parvarishiga muhtoj, yolg'iz yashayotgan 2 ming kishiga yordam ko'rsatilgan. Shunga qaramay bugungi kunda ijtimoiy himoya tizimi bilan 250 ta xizmat qamrab olingan bo'lsa-da, mahalladagi aholi ularning yarmini ham bilmasligi aytilib, ijtimoiy xizmatlar borasida aholining xabardorligini oshirish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish zarurligi qayd etildi. Shuningdek, joriy yil 1-oktyabrdan aholiga ko'rsatiladigan barcha ijtimoiy yordamlar "ijtimoiy karta" orqali moliyalashtirilishi,

kelgusi yildan 40 ta tumanda rehabilitatsiya, sogʻlomlashtirish va nogironligi borlarga qarovchilarni oʻqitish boʻyicha koʻp tarmoqli ijtimoiy xizmatlar markazlari ishga tushirilishi aytib oʻtildi.

Ijtimoiy muammoning ogʻirligiga qarab, uni hal qilish boʻyicha 1-darajada “Inson” markazi, 2-darajada sektor rahbari, 3-darajada tuman hokimi shugʻullanishi, barcha ijtimoiy xizmatlar bosqichma-bosqich ijtimoiy xizmat koʻrsatish shartnomasi orqali koʻrsatilishi taʼkidlandi. Yigʻilishda mamlakatimizda aholini ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj qismi boʻlmish nogironlarga hayotda teng imkoniyat va sharoitlar yaratib berish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga ham alohida toʻxtalib oʻtildi. Qayd etilganidek, Oʻzbekiston 2021-yilda Nogironligi boʻlgan shaxslar huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyaga qoʻshilgan. Bunday shaxslarni ishga olgan korxonalar va tashkilotlar uchun bir qator imtiyozlar berilgan. Endilikda bino va inshootlarni qurish loyihasi nogironligi boʻlganlar uchun qulay muhit yaratilganligi boʻyicha ham majburiy ekspertizadan oʻtkaziladi. Jamoat transporti, bekatlar va chorrahalarda ular uchun toʻsiqsiz muhit yaratish choralari koʻriladi. Shuningdek, xodimlarining 50 foizida nogironlik boʻlgan tadbirkorlarga davlat buyurtmachilari bilan toʻgʻridan toʻgʻri shartnoma tuzish imkoniyati beriladi. Bunday shaxslarni kasbga tayyorlaydigan 4 ta ixtisoslashgan maktab sanoat tarmoqlariga birlashtiriladi. Munozaralar chogʻida aholini ijtimoiy himoyasini tashkil etilishiga barcha qonunchilik, normativ-huquqiy hujjatlar, eng asosiysi sohaning egasi aniq belgilab berilgani va tizim yaratilgani aytib oʻtildi. Ushbu tizim muntazam takomillashtirib borilayotgani, ijtimoiy himoya sohasiga Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratiladigan mablagʻlar miqdorini oshirish va qoʻshimcha resurslarni jalb qilish orqali ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirishga alohida eʼtibor qaratilayotgani eʼtirof etildi.

Savol-javoblar davomida deputatlar mamlakatimizda aholiga professional ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yoʻlga

qo'yish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan birga, ijtimoiy xizmat va yordamni mahalla darajasida manzilli, shaffof va adolatli tashkil etish, ijtimoiy himoyaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va bu borada parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha bir qator taklif va tavsiyalar berildi. Seminar yakunida yuqoridagi masalalar yuzasidan Qonunchilik palatasi deputatlari, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Respublika kasaba uyushmalari Kengashi tegishli vazirlik tashkilotlar vakillaridan iborat Ishchi guruh tuzilib, joylarda o'rganishlar o'tkazish va muammolarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlashga kelishib olindi.

So'nggi yillarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya sohasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar miqdorini oshirish va qo'shimcha resurslarni jalb qilish, ijtimoiy himoya dasturlari qamrovini kengaytirish va oilalarni og'ir hayotiy holatlardan olib chiqishga qaratilgan qo'shimcha mexanizmlarni joriy etish yo'nalishlarida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan:

- kam ta'minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko'rsatish maqsadida «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimi joriy qilindi;
- kam ta'minlangan nafaqa oluvchi oilalar soni oxirgi uch yilda to'rt barobarga oshib, **1,9 millionga etdi**;
- kam ta'minlangan oilalardagi bolalarni parvarishlash uchun to'lanadigan nafaqa qamrovi kengayib, nafaqa tayinlashda inobatga olinadigan bolalar yoshi **14 yoshdan 18 yoshgacha** oshirildi, mazkur to'lov muddati **6 oydan 12 oygacha** hamda nafaqa miqdori o'rtacha **1,5 barobarga oshirildi**;
- ishsizlik nafaqalarining eng kam miqdorlari **3,2 baravarga** oshirildi, aholini bandligini ta'minlashga qaratilgan **20 dan** ortiq yangi instrumentlar joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- **ijtimoiy yordamga** muhtoj va ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan barcha oilalar va shaxslarni ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish;
- majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan ijtimoiy himoya turlaridan **foydalanish imkoniyatini** sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish, ushbu jarayonga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish;
- **aholi uchun** majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlash, ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;
- nogironlikni belgilashning ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o‘tish hamda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandligini ta‘minlash;
- aholining muhtoj qismini zamonaviy **protez-ortopediya** buyumlari va reabilitatsiya vositalari bilan ta‘minlash;
- ijtimoiy xizmatlarni aholiga bevosita mahalla darajasida ko‘rsatish amaliyotini joriy etish.

Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi hisobidan:

Strategiya Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalar jamg‘armasi tomonidan 2020-yilda tayyorlangan «O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini baholash» natijalari va tavsiyalariga asoslanib ishlab chiqildi.

"O‘zbekistonda ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash" loyihasi

Aholining kam ta'minlangan va zaif qatlamlarini ijtimoiy yordam tizimiga kiritish va ularning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish mexanizmlarini

takomillashtirish maqsadida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda Jahon banki ishtirokida "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini mustahkamlash" loyihasini amalga oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro taraqqiyot uyushmasi o'rtasida 2019-yil 19-iyuldagi 6446-UZ-sonli **50 million AQSh dollari** miqdoridagi kredit mablag'larini ajratish uchun moliyalashtirish shartnomasi imzolandi. Loyiha Jahon banki vitse-prezidentining 2019-yil 18-19-iyul kunlari O'zbekistonga tashrifi chog'ida kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" hamda XTU/XTB bilan 2020-21-yillar uchun hamkorlik dasturi doirasida amalga oshirilmoqda.

Loyihani amalga oshirish muddati 5 yildan iborat. **(2020-2024)**.

Loyiha qashshoq oilalarning mehnatga layoqatli ishsiz a'zolari, aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida (ABKM) ro'yxatdan o'tgan ishsizlar va boshlang'ich tadbirkorlarga ko'maklashishga qaratilgan.

Ushbu loyiha uchta tarkibiy qismdan iborat:

I. Ijtimoiy yordam tizimini modernizatsiya qilish. Bunga:

a) yagona ijtimoiy reyestrni joriy etish va joylashtirish, shuningdek miliy ijtimoiy reyestrga o'tish;

b) kam ta'minlangan oilalar uchun ijtimoiy nafaqalar samaradorligini oshirish orqali ijtimoiy yordam tizimini mustahkamlashni qo'llab-quvvatlash;

c) pul nafaqasini to'lab berishdagi pilot loyihani ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashni qo'llab-quvvatlash;

d) ijtimoiy nafaqalar tizimining nazorati, hisobdorligi va shaffofligini oshirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar kiradi.

II. Mehnat bozorini jonlantirishga qaratilgan dasturlarning samaradorligini oshirish, shu jumladan:

a) yangi biznesni boshlash uchun subsidiyalarni oluvchilarga, shuningdek ishsizlar uchun imtiyozli mikrokreditlar oluvchilarga o'z biznesining rentabelligi va muvaffaqiyatini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlari;

b) bandlik va tadbirkorlikni rag'batlantirishga, shuningdek ish beruvchilar va ishsizlarga subsidiyalar berish orqali ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan mehnat bozori dasturlarini amalga oshirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

c) yagona milliy mehnat tizimini (YMMT) takomillashtirish, shu jumladan milliy vakansiyalar platformasi bilan integratsiyalash, BMMV AT bo'limlari salohiyatini oshirish va ABKMLardagi AKT resurslarini modernizatsiya qilish;

d) ABKMLarga bandlikka ko'maklashish dasturlari va xizmatlarini ko'rsatish uchun xususiy tadbirkorlik sub'yektlarini qamrab olish, mehnat inspeksiyasini kuchaytirish, zamonaviy IT-texnologiyalaridan foydalangan holda xatolar va suiiste'molliklarni kamaytirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda texnik yordam ko'rsatish;

e) xizmat oluvchilarning profillashning va shaxsiy yondashuv metodologiyasining samarali vositalarini ishlab chiqish, ABKM xodimlari uchun muntazam treninglar.

III. Loyihani monitoring qilish va boshqarish, shu jumladan:

a) mehnat bozoridagi aralashuvlar monitoringini kuchaytirish, mavjud dasturlarning ta'sirini baholashda Mehnat vazirligi qoshidagi Respublika ilmiy markazining salohiyatini oshirish, malakali kadrlarga bo'lgan talabni o'rganish,

mehnat organlarining ish jarayonlarini baholash, dasturlarning benefitsiarlari o'rganishga qaratilgan chora-tadbirlar;

b) loyihaning barcha uchta komponentlarining monitoringini o'tkazish va boshqarish bo'yicha tadbirlar.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib hamda ijtimoiy himoya sohasida tizimli islohotlarni izchil davom ettirish va yanada takomillashtirish, aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta'minlash, davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishda samarali idoralararo muvofiqlashtiruvchi tizimni yaratish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

- ijtimoiy yordamga muhtoj va ijtimoiy nafaqa tayinlash mezonlariga javob beradigan **barcha oilalar va shaxslarni ijtimoiy yordam dasturlari bilan qamrab olish;**

- majburiy ijtimoiy kafolatlardan, shu jumladan, **ijtimoiy himoya turlaridan foydalanish imkoniyatini sohani raqamlashtirish hisobiga kengaytirish**, ushbu jarayonga ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy qilish;

-aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, **ehtiyojmand qatlamlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;**

- nogironlikni belgilashning **ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o'tish** hamda imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash;

-aholining muhtoj qismini zamonaviy protez-ortopediya buyumlari va **reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash**;

-ijtimoiy xizmatlarni aholiga **bevosita mahalla darajasida ko'rsatish amaliyotini** joriy etish.

2. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi 1-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini 2022-2023-yillarda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish maqsadida, **2024-yildan boshlab "Yo'l xaritalari"** har **ikki yilda** Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

3. Moliya vazirligi tarkibida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan **Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi** tashkil etilsin. Belgilansinki, Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi faoliyatini moliyalashtirish manbalari bo'lib **O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari** hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisoblanadi.

4. Belgilansinki, Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi hisobidan:

a) **2022-yil 1-sentyabrdan** boshlab davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha minimal iste'mol xarajatlaridan kelib chiqib homiladorlik va tug'ish nafaqalari to'lanadi.

Bunda, xodimning ish stajida 1 oygacha bo'lgan tanaffuslar mavjud bo'lsa ushbu **tanaffuslardan oldingi va keyingi oylar ketma-ket ish stajini hisoblashda qo'llaniladi;**

b) kelgusida **davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha beriladigan nafaqalar** "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali bosqichma-bosqich to'lanadi.

5. Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi (A.Inakov) Sog'liqni saqlash vazirligi (B.Musayev), Xalq ta'limi vazirligi (B.Saidov), Moliya vazirligi (T.Ishmetov), Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi (S.Turdiyev), Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi (Z.Maxkamova) hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

2023-yil 1-martga qadar davlat tomonidan kafolatlangan va bepul taqdim etiladigan **minimal ijtimoiy xizmatlar ro'yxatini shakllantirsin** va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin;

2023-yil 1-iyulga qadar davlat tomonidan kafolatlangan va bepul taqdim etiladigan minimal **ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish standartlarini tasdiqlasin.**

6. Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi tashkil etilishi munosabati bilan:

2022-yil 1-sentyabrdan Moliya vazirligi huzuridagi Ma'muriy binolardan foydalanish boshqarmasi tugatilishi hisobiga 3 ta shtat birligidan iborat **Ijtimoiy sug'urta jamg'armasining faoliyatini tashkil etish bo'limi;**

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining ijro apparati shtat birliklari hisobidan 2 ta shtat birligidan iborat **Ijtimoiy to'lovlarni "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali amalga oshirish sho'basi;**

2022-yil 1-sentyabrdan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya bosh boshqarmalari huzurida, ularning umumiy shtat birliklari doirasida **2 ta shtat** birligidan iborat **Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi mablag‘larini boshqarish va Ijtimoiy sug‘urta nafaqalari to‘lovlarini monitoring qilish bo‘limlari** tashkil etilsin.

7. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Moliya vazirligi bilan birgalikda ushbu farmonning maqsad va vazifalari bosma va elektron ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali aholi o‘rtasida muntazam, tizimli va keng ko‘lamda yoritib borilishini ta’minlasin.

8. Moliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonunchilik hujjatlariga mazkur farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

9. Mazkur farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib moliya vaziri T.A.Ishmetov belgilansin.

Farmon ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari J.A.Qo‘chqorov zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berib borilsin.

O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti Sh.MIRZIYOEV

Toshkent shahri,

2022 yil 25 iyul

Ijtimoiy siyosat

Har bir bolaning farovonligi oshirish va imkoniyatlarini yaxshilash orqali barcha bolalarning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarini himoya qilish

UNICEF - O'zbekistonda yanada samarali va inklyuziv ijtimoiy siyosatni amalga oshirish orqali mamlakatdagi har bir bolaning hayotda teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashga intiladi. Biz O'zbekiston hukumatining kundalik hayotda va favqulodda vaziyatlarda ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaymiz. Maqsadimiz - har bir bola hayotining munosib boshlanishini ta'minlash, bolalar kambag'alligini qisqartirish, bolalar ehtiyojlariga qaratilgan davlat moliyaviy resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish, bolalar va yoshlarga do'stona munosabatdagi mahalliy boshqaruv rivojlanishiga ko'mak berish.

UNICEF O'zbekiston hukumatining bir qator tizimli islohotlarni, jumladan, ijtimoiy himoya strategiyasini ishlab chiqish va qabul qilish, ma'muriy konsolidatsiya va ijtimoiy himoya tizimini raqamlashtirishni amalga oshirishdagi asosiy hamkori hisoblanadi. Biz natijalarga qaratilgan byudjetlashtirishni ilgari surishda yordam beramiz, bu esa davlat moliyasini boshqarish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga yordam beradi. Shuningdek, unicef o'zbekistondagi monetar va ko'p o'lchovli bolalar kambag'allibini o'lchashga yordam bermoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.uz.wikipedia.org

4.mehnat.uz

2.insonhuquqlari.uz

5.yuz.uz

3.advice.uz

6.unicef.org.